

PEDAGOGIKA

ilmiy-nazariy va metodik jurnal

1/2018

“Ushbu kitob yoshlarga chet til o‘qitish masalalari bo‘yicha juda keng qamrovli, muallif tomonidan qo‘shilgan ulkan hissa va kashfiyotdir”¹.

M. Uestda ta‘limning turli jabhalariga bo‘lgan qiziqishi kamaymadi. 1929-yil o‘zining “Language in Education” nomli doktorlik tezisi asosida yana bir qo‘shimcha kitob yaratdi. Shuning bilan birgalikda, ayni shu davrning o‘zida, M. Uest boshqa tillarni o‘qitishda yangi metod tizimini moslashtirishga va darslik bilan bog‘liq boshqa tajribalar bilan shug‘ullanishga kirishdi. “Biz “New Method Primer” kitobida bajarganimizdek, harflarni terish orqali Bengaliyaliklarga o‘qishni o‘rgatish uchun kitob yaratdik. Bunda o‘quvchilarni sanskrit tilini o‘qitish uchun murakkab grammatik yuklamasiz o‘qitish kursi mavjud edi hamda kitob so‘ngida o‘qituvchi boshqa sinfni o‘qitish mobaynida bir sinfga o‘rgatish imkonini beradigan boshlang‘ich sinf uchun alohida kurs yozilgan. O‘sha vaqtda boshlang‘ich maktablarda o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida ikkita sinf bilan shug‘ullanishi kerak edi. Londonda joylashgan Imperial ta‘lim konferensiyasida “Biz, barcha maktab o‘qituvchilari boshlang‘ich maktablarda o‘qitishga vaqt sarflash va bir vaqtning o‘zida ikkita sinf bilan shug‘ullanish borasida tajribaga ega bo‘lishlari kerakligini aytdik, deb ta‘kidlaydi”².

M. Uestning maqsadi, qayerda tajribasiz o‘qituvchilar bo‘lsa, o‘sha yerning ta‘lim tizimini rivojlantirish, yaxshi darsliklar yaratish, darslarda qayta-qayta sinash, o‘quvchilarga o‘rganishi uchun yordam berish edi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, M. Uestning umumiy chet til o‘qitish bobidagi hissalar hozirgi kungacha nafaqat Dakka o‘qituvchilar tomonidan, balki dunyo mamlakatlari bo‘ylab chet til bilan shug‘ullanuvchilar, ayniqsa, o‘qishni o‘rgatish bo‘yicha ilmiy faoliyat olib boruvchilar tomonidan chuqur o‘rganib kelinmoqda.

Professor M. Uestning chet tillar o‘qitish metodikasi tarixida birinchi marta matnni tayyorlash va o‘qib axborot olish masalalariga bag‘ishlangan barcha fikr-mulohazalari hozirda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.



¹Coleman, Algernon. 1929. The Teaching of Modern Foreign Languages in the United States: A Report Prepared for The Modern Foreign Language Study. New York: Macmillan. – P. 28.

²Anon. 1973. Obituary entitled ‘Dr. Michael West: English for foreigners’. The Times, 24 March 1973. – P. 7.

O‘QUVCHILARDA MUTOLAA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM MASALALARI

Rezume. Mazkur maqolada adabiy ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning mutolaa madaniyatini rivojlantirishning an’anaviy va innovatsion shakllari uyg‘unligini ta‘minlashga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar: *adabiyot, ta‘lim, adabiy ta‘lim, kitob, mutolaa, madaniyat, mutolaa madaniyati, kitobxon, badiiy tahlil.*

Abstract. This article provides recommendations to ensure the harmonious mutual traditional and innovative forms of development of reading culture among students in the teaching of literature.

Key words: *literature, education, literary education, book, reading culture, the culture of reading, book lover, artistic analysis.*

Резюме. В данной статье даны рекомендации по обеспечению взаимного гармонирования традиционных и инновационных форм развития читательской культуры у учеников в процессе преподавания литературы.

Ключевые слова: *литература, образование, литературное образование, книга, чтение, культура, читательская культура, книголюб, художественный анализ.*

Jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an‘analarni chuqur qaror toptirishi xususan, xalqimiz ayniqsa, yosh avlodning ma‘naviy-intellektual salohiyati, u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beahamiyatga ega bo‘lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda¹. Ayniqsa, adabiy ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.



O. Turakulova

¹Turakulova Oqila Amirkulovna, Toshkent to‘qimachilik yengil sanoat instituti qoshimchasi, akademik litsey o‘qituvchisi. E-mail: turakulova.oqila@mail.ru

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini ishlab chiqarish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaa va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish to‘g‘risida” qarorga imzo qo‘ygan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini ishlab chiqarish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaa va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish to‘g‘risida” qarorga imzo qo‘ygan.

Mutolaa madaniyatini rivojlantirish kompleks tavsifga ega bo'lib, oila, ta'lim muassasasi va ommaviy axborot vositalari targ'ibot-tashviqot ishlarining jadal amalga oshirilishini talab etadi. Adabiyot darslarida o'quvchilarda kitob o'qishga qiziqish va adabiy fikrlash ko'nikmalari tarkib toptiriladi. Demak, aynan mutolaa madaniyatini rivojlantirishning asosi adabiy ta'limning samarali tashkil etilganligi bilan belgilanadi.

Mutolaa madaniyati tushunchasiga xilma-xil ta'riflar berilgan bo'lib, barchasining negizida kitobga qiziqishni, o'quvchilarning adabiyotlar bilan kengroq tanishish ehtiyojini, kitob bilan ishlash texnikasini o'zlashtirishlarini, axborot manbalari bilan ishlash hamda axborot iste'moliga doir kompetentlikni shakllantirish yotadi.

Respublikamizda mutolaa madaniyatini mutolaa texnologiyasi, darajasi va intensivligi asosida shakllantirishga doir konseptual asoslar sotsiologiya fanlari doktori A. Umarov tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, olimning fikricha, mutolaa madaniyatining muhim tarkibiy jihatlari undagi ixtiyoriylik, ta'lim olishda ongliklik, faoliyat turini erkin tanlash, o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyoji tamoyillari bilan bog'liq bo'lib, o'quvchi shaxsini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi¹. A. Umarov ta'kidlab o'tganidek, o'z-o'zini rivojlantirish o'quvchining kommunikativ kompetentligini taqozo etib, shaxslararo faol muloqotga kirishish uchun badiiy kitob mutolaasi muhim ahamiyat kasb etadi. Hammaga yaxshi ma'lumki, badiiy asarlar o'qish ijodiy tasavvurlarni boyitadi, asar qahramonlari qayg'usiga sherik, hamdard bo'lishga undaydi, his-tuyg'u va fikrlarni rivojlantiradi, hayotiy maqsadlarni aniqlashtirib olishga yordam beradi, hayotiy qadriyatlarni shakllantiradi, so'z boyligini oshiradi. Yuqoridagi fikrdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, adabiy ta'limning maqsadi, bir jihatdan, badiiy asarning mohiyatini san'at turi sifatida tushunish, ikkinchi tomondan, kitobxonlik madaniyatini shakllantirishdir.

Badiiy adabiyot insoniyat hayotini charog'on etishi, inson umriga nurafshonlik baxsh etib, ma'naviy olamini shakllantirishi va yuksaltirishi, porloq kelajak uchun munosib to'g'ri yo'lni tanlashga yordam berishi, kitobning insoniyat tomonidan yaratilgan eng buyuk kashfiyot ekanligi bois har qanday davr va zamonda kitob o'qish, kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan².

¹Умаров А. Мутолаа маданияти (Китоб инсон учунми ёки инсон китоб учун) Ҳаёт ва қонун газетаси. – Тошкент, 2004. – № 6. – Б. 74.

²Азимова Ф., Тосҳемирова Г. Бadiiy asar tahlili madaniyati. // Pedagogika. – Toshkent, 2017. – № 5. – Б. 100.

Adabiyot darslarida badiiy asarlar ustida ishlashning xilma-xil metod usullaridan foydalanib kelinmoqda. Ulardan ko'pchiligi an'anaviy tavsifga darslarda ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish holda qo'llash o'z samarasini bermoqda. Badiiy asarlar bilan ishlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bilan birga, matnni idrok qilish imkoniyatini oshirish uchun amaliy san'at, musiqa, dramalashtirilgan asarlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Badiiy asarlar ustida ishlash shakllari orasida sinfdan tashqari o'qishni tarqalgan. Sinfdan tashqari o'qish o'quvchilarning o'zlari yoqtirgan va to'liq badiiy asarlar bilan o'zlarining vaqtlari hisobiga tanishishini anglatadi. Jarayonda o'qituvchining vazifasi o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hamda adabiy jarayonning o'ziga xosligidan kelib chiqib, ularga aniq tavsif berish ko'rsatmalar berishi lozim. Q. Yo'ldoshevning fikricha, ayrim sinflarning adabiyot bo'yicha o'quv dasturlarida sinfdan tashqari o'qilgan asarlar yuzasidan sinfdan o'tkazish uchun muayyan miqdorda vaqt ajratiladi, lekin o'quvchilarning o'z faoliyatiga baho qo'yilmagani ma'qul. Negaki, o'quvchilar davlat standartida ko'rsatilgan miqdordagi adabiy material va adabiyot tushunchalarni o'zlashtirishgagina majburdirlar. O'qituvchi majburiy ta'limni 5-sinfdan e'tiboran barcha bosqichlarida o'quv yili boshida sinfdan ta'lim o'qilishi lozim deb hisoblagan asarlar ro'yxatini o'quvchilarga berishi va yil yakunida yoki o'quv yili yakunida bular yuzasidan o'quvchilar bilan suhbatlar o'tkazish maqsadga muvofiq¹. Sinfdan tashqari o'qish bilan birga adabiy konferensiyalar, adabiy uchrashuv, adabiy debatlar, adabiy ko'rgazma va adabiy kecha ham keng foydalaniladi.

Adabiy konferensiya yozuvchining bir yoxud turkum asarlari bo'yicha alohida tayyorgarlik bilan o'tkaziladigan ilmiy-adabiy tadbirdir. Unda o'qituvchi va o'quvchilar ma'ruza bilan ishtirok etishi talab etiladi. Mazkur adabiy konferensiyalar shakli umumiy o'rta ta'lim maktabining yuqori sinflarida va o'rta maxsus ta'lim hunar ta'limi muassasalarida o'tkazilishi maqsadga muvofiq, chunki mazkur shakli adabiy asarni filologik tahlil etishni talab etadi.

Adabiyot darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda uchrashuvlarning ham alohida ahamiyati bor. Adabiy uchrashuvlarni o'tkazish o'qituvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi. O'qituvchi adabiy uchrashuvni tashkil etishning ssenariysini loyihalashtirishi, tashkiliy jarayonga doir vazifalarni aniq algoritm asosida ishlab chiqishi lozim. Q. Yo'ldoshevning qayd etilgan

¹Йўлдошев Қ. Адабий таълим технологияси модули бўйича ўқув-услубий методик қўлланма. – Тошкент: ТошДУТТАУ, 2017. – Б. 34.

“Adabiy uchrashuvlarda adabiyot o‘qituvchilari, albatta, hisobga olishlari zarur bo‘lgan ikki jihat bor.

Birinchisi, ijodkorni uchrashuvga shunchaki chaqirib qo‘ymay, qatnashchilar uning yozganlari bilan bir qadar tanishgan bo‘lishini ta‘minlash ko‘zda tutilishi lozim.

Ikkinchidan, uchrashuvga taklif qilingan adibning ijodidan xabardorlikni ko‘rsataman deb, o‘quvchilarning chiqishlariga keragidan ortiq vaqt sarflab, ijodkorning o‘zidan foydalanish yoddan ko‘tarilib ketmasligi kerak. Ba‘zi adabiyot o‘qituvchilari uchrashuvga chaqirilgan ijodkorning bir qancha asarlarini o‘quvchilarga yodlatadi, sahna ko‘rinishlari tayyorlaydi va buni mehmonga to‘liq ko‘rsatishga intiladi. Natijada, belgilangan vaqt o‘tib ketadi va chaqirilgan ijodkordan keragicha foydalanilmay qoladi”¹.

Adabiy debatlar zamonning dolzarb masalalariga bag‘ishlab yozilgan badiiy asarlar yuzasidan o‘tkaziladi. Debatlarni o‘tkazish texnologiyasi ishlab chiqiladi hamda mazmunga, tashkiliy jarayonga doir jihatlari avvaldan aniqlashtiriladi. Debat jarayonida o‘qituvchi moderator vazifasini bajaradi hamda o‘quvchilarni ikki: muhokama va taqrizchi guruhlariga ajratadi. Debatlarni o‘tkazish jarayonida o‘quvchilarda badiiy-estetik tafakkur va bahs madaniyatini shakllantirishga katta e‘tibor qaratish lozim.

Adabiy kechalar biror-bir adibning tavalludi yoxud tanlangan mavzu bo‘yicha uyushtiriladigan adabiy-badiiy tadbir bo‘lib, maxsus tayyorgarlik va puxta rejani talab etadi. Adabiy kechalar jarayonida o‘quvchilarning qiziqishi va iqtidorini hisobga olgan holda mavzuga doir rasmlar ko‘rgazmasi, she‘r aytish, qo‘shiq kuylash va sahna asarlarini qo‘yish maqsadga muvofiq.

Kitobxon o‘quvchini tarbiyalash uchun adabiyot darslarida ularni badiiy asarlarni tahlil etish texnikasi bilan qurollantirish lozim. Adabiyot darslarida badiiy asarlarni tahlil etishning og‘zaki va yozma shakllaridan foydalanish mumkin. Badiiy asar ko‘pincha og‘zaki tahlil etiladi, bu tabiiy, biroq ta‘limdagi an‘anaviylikka tayangan holda, badiiy asarlarni o‘quvchi o‘qib bo‘lganidan so‘ng, aniq mezonlar bo‘yicha alohida daftarga yozma tahlil qilinishi o‘quvchida ijodiy fikrlashni va kreativ qobiliyatni shakllantirishga yordam beradi. Masalan, yozma tahlilni amalga oshirish uchun quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

- badiiy asarning nomi va muallifi;
- badiiy asarning turi;
- nashr varianti (bosma yoki android);

¹Йўлдошев Қ. Адабий таълим технологияси модули бўйича ўқув-услубий мажмуа. – Тошкент: ТошДўТАУ, 2017. – Б. 34.

- asarda ilgari surilgan asosiy g‘oya;
- badiiy asarning asosiy qahramonlari va personajlar;
- badiiy asarning tili va bayon uslubiga munosabat;
- asar yuzasidan o‘quvchining taassuroti;
- badiiy asar natijasida o‘quvchida shakllangan sifat va fazilatlar;
- o‘qish jarayonida uchragan notanish so‘zlar va atamalar;
- badiiy asar yuzasidan umumiy xulosa.

Badiiy asarni didaktik tahlil etishda o‘qituvchi tomonidan o‘quv yo‘naltiruvchi, muammoli savol hamda topshiriqlarning berilishi jarayonning samaradorligini ta‘minlaydi. Masalan, umumiy o‘rta maktablarining 10-sinfi va akademik litseylarning 1-kursida O‘tkir Hoshir “Ikki eshik orasi” romanidan berilgan parchani o‘qish jarayonida quyidagi savollardan foydalanishi mumkin:¹

1. Nega asarning ikkinchi bobi “Qora amma hikoyasi” deb nomlangan?
2. Asarda qo‘llanilgan quyidagi iboralar nimani anglatadi va qahramonlarga nisbat berilgan: “o‘z kindigini o‘zi kesgan xilidan”, “bir o‘lim”, “ichagingni boshingga salla qilib ketamiz”, “qovjiragan ko‘zimning oldida so‘lib boryapti”, “go‘shtingni bir burdadan qilmasam ekanman”.
3. Kimsan yeb yurgan “qalampir” qanday sabzavot ekini edi?
4. Asarda Otabek, Kumushbibi, Hasanali obrazlari ham bormi?
5. “Agar Husan akani qisib qo‘ymagan bo‘lsak, hasharchilarni qurishga solsakmikan...” Mazkur gap asardagi qaysi voqea bilan bog‘liq?

Adabiyot darslarida o‘quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishdagi rolli o‘yinlar ham muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, “Men – kitobxon”, tanqidchi”, “Men – yozuvchi”, “Men – ekskursovod” kabi o‘yinlardan foydalanish mumkin. “Men – tanqidchi” rolli o‘yini asarni tahlil qilishda mo‘ljallangan bo‘lib, yozuvchidan yoki adabiy qahramondan intervyu matnini tahlil etish algoritmini yaratish, bir yoki bir necha asarlar (masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasi, Said Ahmadning “Majnun” hikoyasi) bo‘yicha tanqidchilarning munozarasini tashkil etish uchun “Men – yozuvchi” rolli o‘yini insho yozish ko‘nikmalarini ekranga yo‘naltirilgan. Adabiy yozma ishlarning murakkab turiga o‘quvchilarni muhabbat uyg‘otish uchun kichik hajmdagi ijodiy, masalan, kitob taqdimoti doir topshiriqni berish mumkin. Bir oy davomida 10-sinf o‘quvchilari

¹Qarang: Йўлдошев Қ. Yuqoridagi adabiyot. – B. 34.

Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining “To‘y; Qizlar majlisi” bobini she‘riy, sahna, videorolik, multimedia ko‘rinishida taqdimot qilishlari topshirig‘ini berish mumkin.

“Men – ekskursovod” rolli o‘yini o‘quvchilarda kitob o‘qishga qiziqishni oshirish maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni ko‘zda tutadi. Asardagi voqelik va zamonaviy holatni uyg‘unlashtirish maqsadida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asari asosida o‘quvchilar Toshkent, Marg‘ilon shaharlariga virtual ekskursiya uyushtirishadi va materiallar asosida slayd-taqdimotlar tayyorlashadi.

Dars jarayonida rolli o‘yinlarni qo‘llash quyidagi natijalarni berdi (1-jadval).

1-jadval

Guruhlar	1a-15	%	2a-15	%	3a-15	%	4i-15	%	%
Men – ekskursovod	30/21	70	26/18	69	25/17	68	28/16	57	66
Men – yozuvchi	30/22	73	26/19	73	25/20	80	28/19	67	73
Men – tanqidchi	30/19	63	26/17	65	25/15	60	28/14	50	59

Insho olish yo‘li bilan besh baholik tizim bo‘yicha o‘quvchilar baholandi. Bunda baholar inshoning mazmuni va imlosiga qarab qo‘yildi. Natija insho mazmuniga qarab olindi. “Men – yozuvchi” rolli o‘yini yaxshi natija berdi. Eslatib o‘tish lozimki, bu yerda insho mazmuniga qo‘yilgan baholar nazarda tutilmoqda. Ba‘zi o‘quvchilarda imlo xatolari ko‘pligi umumiy ballni pasaytirib yuborgan hollar ham uchraydi. Bu savodxonlik ustida ko‘proq ishlash zarurligini ko‘rsatadi.

O‘quvchilarning badiiy asarlarni o‘qishga qiziqishlarini oshirish maqsadida o‘qituvchi ijtimoiy tarmoqlar orqali kitobning audio va android variantlarini taqdim etib borishi, “Kitobxon kundaligi” virtual guruhini tashkil etib, o‘qilgan asarlar yuzasidan forumlarni tashkil etishi o‘zining ijobiy samarasini beradi.

Badiiy asarlarni o‘qitishda o‘qituvchining metodik mahorati o‘ziga ahamiyatga ega, chunki ta‘limning eng samarali usullaridan o‘qituvchi foydalangandagina, ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin. Maqsadga erishish ko‘p jihatdan o‘qituvchining shaxsiy fazilatlariga bog‘liqdir. O‘qituvchi o‘zini tayyorlanar ekan, har bir guruhga mos keladigan usul tanlamog‘i lozim. O‘qituvchi bir xil usulda ikki xil guruhda dars o‘tib ham bir xil natijaga erishmaydi, chunki har xil xarakterli o‘quvchilarni bir xil usul bilan o‘qitib natijaga erishish mumkin emas. Buning uchun guruh o‘quvchilarining o‘ziga xususiyatlarini bilib, ularning nimalarga qodirligini aniqlab dars boshlash natija beradi. O‘qituvchi o‘zida bir qator sifatlarni mujassam etmog‘i: pedagogik mahoratlilik, ilmiy tadqiqotchilik, tashkilotchilik, adabiy vositalar badiiy ijrochilik, pedagogik ijodkorlik.

Adabiyot o‘qituvchisi badiiy asar bilan o‘quvchi orasida ko‘prik va bog‘ bajaradi, shuning uchun u mashg‘ulot uyushtirishda o‘quvchilarning taraqqiyotini ta‘minlashni ko‘zda tutishi kerak. Ruhiiy taraqqiyot asarlar zahirida ma‘noni ilg‘ash, turli badiiy ifodalarda ostida “yashirinib yotgan” jozibani payqash imkonini beradi. U o‘quvchilarning asarni to‘la o‘zlashtirishi, anglashi, baholashi hamda tahlil qila olishiga zamin yaratishi kerak.

Adabiy ta‘limda badiiy matnni, uning zamiriga yashirin, sirli, jizmatli ifodalarni va bu ifodalardan kelib chiqadigan mantiqiy ma‘nolarni o‘qituvchi uchun oson, lekin hali hayot tajribasi kam, badiiyat olamining sifati anglash malakasi shakllanmagan o‘quvchi uchun ancha murakkab, shuning uchun ham o‘qituvchida badiiy asar timsollarining ruhiy-hissiy holatini o‘quvchilarga anglatish, ularning yoshiga, ruhiga, o‘zlashtira olishiga mos usullar ularning ko‘ngil mulkiga aylantiruvchi adabiy vositachi bo‘lishi lozim. Asarlar o‘quvchi ma‘naviy mulkiga aylanjishi o‘qituvchining mahoratiga bog‘liqdir. O‘quvchilar ustozga ergashib badiiy asarni kashf etishga, asar matni zamirini jozibani anglashga odatlanadi. Bu hol ularning kitob o‘qish madaniyatini oshiradi, so‘z ustida ishlashga o‘rgatadi.

Adabiyot darslarida ta‘lim muassasasi va oila hamkorligini rivojlantirish maqsadida o‘quvchining ota-onalari, bobo-buvilarini tadbirlarga majburlash sifatida chaqirish, ular bilan birgalikda o‘qilgan badiiy asarlar yuzasida suhbatlar o‘tkazish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, adabiy ta‘limda o‘quvchilarning mutolaa madaniyatini rivojlantirishda badiiy tahlilga alohida e‘tibor qaratish, adabiy ta‘limning an‘anaviy hamda innovatsion shakl, metod va vositalarining uyg‘unlash ta‘minlash, kitob o‘qishni hayotiy ehtiyojga aylantirishga erishish lozim.